O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

«PEDAGOGIKA FAKULTETI »
BT va STI yo'nalishi
05.419-guruh talabasi

*SULAYMONOVA NIGORANING*

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

## MAVZU: "O'QISH DARSLARIDA MUSTAQILLIK VA VATANPARVARLIK G'OYALARI"

***Ilmiy rahbar:***
*Dotsent*
*M.Matg'oziyev*

*Farg'ona-2009*

# Mundarija

Kirish _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 3

I bob Boshlanĝich ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori va unda õqish darslarini õziga xosligi _ _ _ _ _ _ 11

1.1§ Õquvchilarni boshlanĝich ta'lim bosqichida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari _ _ _ _ _ _ _ 12

1.2 § Õqish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari xususida _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 19

II bob Õqish darslarida mustaqillik va vatanparvarlik mavzusidagi matnlar va ular ustida ishlashning ba'zi masalalari _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 31

2.1§ Õqish darslari orqali kichik yoshli õquvchida mustaqillik va vatanparvarlik ĝoyalarini shakllantirish _ _ _

2.2§ Vatanparvarlik ruhidagi mavzularni õrganishda luĝat ustida ishlashning õziga xosligi _ _ _ _ _ _ _ _ 47

Xulosa _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ _ 58

Foydalanilgan adabiyotlar _ _ _ _ _ 60

Ilova

# Kirish

„Bizning asosiy boyligimiz rivojlangan davlat tuzishga olib boradigan yōldagi tayanchimiz insondir. Yuksak malakali va yuksak ma'naviyatli insondir. Bu narsa yosh avlodga tegishli".

I. A. Karimov

Mamlakatimiz mustaqil davlat sifatida ōz ōrnini egallab, ōz yōlini boshqarib borayotgan ushbu mustaqillik sharoitida davlatimizning yuksaklikka intilishi va yanada rivojlanishi kōp jihatdan jamiyat taraqqiyotiga ōz hissasini qōshadigan ma'naviy yetuk, jismonan soğlom yoshlarni tarbiyalab yetishtirishga boğliq. Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan bir qator islohotlar mazkur masalani hal etishda muhim bosqich hisoblanadi. Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", „Ta'lim tōğrisidagi" qonun, „Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi" kabi ta'limni rivojlantirish va yangicha isloh qilishga qaratilgan dasturamal hujjatlar fikrimizni yorqin dalili bōla oladi.

Ularda mamlakatimizda ōsib kelayotgan yosh avlodni aqlan, ruhan va jismonan yetuk qilib kamol toptirish, istiqbolli kelajak kōrish yōlida amalga oshirilishi lozim bōlgan, ōz dolzarbligi va yuksak ahamiyatliligi bilan ajralib turuvchi muhim va islohotlar ōz aksini topgan. Ayniqsa, bu sohada ta'lim mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tubdan isloh qilish, ōqitish sifati va samaradorligini oshirish, yangi va zamonaviy, ilgor pedagogik texnalogiyalarni qōllashga katta e'tibor berilgan.

Ōzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan „Davlat ta'lim standartlari tōgrisida"gi Nizomga binoan umumiy ōrta ta'lim, shu jumladan, boshlangich ta'lim bosqichi uchun ham alohida-alohida davlat ta'lim standarti talablari va meyoriy kōrsatkichlari belgilab qōyildi.

Uzluksiz ta'lim ta'lim tizimida boshlangich ta'limga ta'lim jarayonining poydevori sifatida qarash tōgri bōladi. Shunday ekan har qanday imorat mustahkamligi uning poydevoriga bogliq ekanligi hech kimga sir emas. Ta'lim jarayonida ham yuqori natija kōrsatgan boshlangich ta'lim ta'limining keyingi bosqichlarini samarali kōrsatkich berishini ta'min etadi.

Boshlanğich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va ōz-ōzini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan soğlom, moddiy borliq gōzalliklarini his qila olish va undan estetik zavq ola bilishga, milliy urf-odatlarni ōzida singdirish va ardoqlash, ularga xurmat bilan qarash va rioya qilishga ōrgatadi.

Davlatimizdagi ta'lim tizimining asosi hisoblangan boshlanğich ta'lim tayanch ōquv rejasiga doirasiga ona-tili, matematika, tabiat, inson va jamiyat ta'limi sohalariga ōquv fani sifatida emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta'limi bolalarni tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, ōzgalar fikrini anglashi, ōz fikrlarini oğzaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bōla olish kōnikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tili ta'limi bola nutqiy faoliyatini ōstirishga, tafakkur doirasini ōstirishga xizmat qilar ekan bu mashğulot kōproq boshlanğich

ta'limda ōqish darslarida kōproq amalga oshiriladi

Boshlanğich sinf ōqish darslariga yuqori sinf adabiyot darslari poydevori sifatida qarash mumkin. Ōqish darslarida turli mavzudagi, turli janrdagi adabiy matnlar ōrganilib, ular ōz mazmun mohiyatidan kelib chiqib ōquvchini ham nutqiy malakasini oshiradi, shu bilan birga dunyoqarashini kengaytiradi va uning shaxsini tarbiyalaydi. Darslikda Vatan, ona tabiat haqida, ahloqiy mavzudagi ilmiy-ommabop adabiy asarlar berilgan bōlib, har bir sinf uchun alohida kiritilgan va bunda ōquvchi yosh xususiyati va idrok qila olish darajasi hisobga olingan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimda kichik maktab yoshidagi bola shaxsiga vatanparvarlik va mustaqillik tuyğusini singdirish va unda vatanparvarlik hislatini shakllantirish masalasini amalga oshirishda boshlanğich ta'lim bosqichidagi ōqish darslarini roli va unda yuqoridagi tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishni usul va metodlari, kōzda tutilgan masalaga bugungi kundagi talab haqidagi fikr va mulohazalar, ilmiy-amaliy yoritilib berishga harakat qilingan.

Prizidentimiz I. A. Karimov „Ōzbekiston kelajagi buyuk davlat" risolasida: „Vatanning har bir asl farzandi ōzining ota yurtining ajralmas bōlagi deb his qilyapti va bundan fahrlanyapti. Istiqlol bergan boyliklardan birinchisi ana shu desak aslo yanglishmagan bōlamiz" degan fikrni bergan edi. Bu fikr mohiyatan istiqlol farzandini yaqqol kōrsatib beradi.

Kelajakda buyuk davlat darajasiga kōtarilish maqsadi yōlida intilayotgan ōzbek xalqi hayoti, turmush tarzi, urf-odatlari, ma'naviy qadriyatlarini ōzida mujassamlashtirmoqda. Shunday ekan har bir ōqituvchi ōz ōquvchilarida vatanparvarlik va mustaqillik ģoyalarini shakllantirishda quyidagilarni amalga oshirish zarur:

— Ona Vatanga bōlgan muhabbat, uni sevish, uning ravnaqiga har bir ōquvchi ōz hissasini qōshishiga erishish;

— Ona vatan Mustaqil Ōzbekiston tushunchalarini ōquvchi ongiga singdirish va unga sodiq bōlish;

— Vatanimiz xalqiga uning an'analariga tili va madaniyatiga muhabbat va xurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga ōz hissasini qōshish, uning haqiqiy jon-

kuyari bōlish;
— Ōzbek xalqining madaniy merosi hisoblangan madaniyat, san'atni va bugungi kundagi ahamiyatini bilish;
— Ōz millatiga, ona-vataniga, iymoniga sodiq bōlish;
— Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash, vatan taraqqiyoti, millat obrōsiga hissa qōshish, foyda keltirish, fidoiylik va halollik bilan mehnat qilish, xalq shon shuxratini, manfaatini ōylash, insonparvar bōlish va shu kabilar.
Chunki, vatanparvarlik shaxsni axloqiy madaniyatini shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.
Mazkur bitiruv Malakaviy ish boshlanğich sinf ōqish darslarida mustaqillik va vatanparvarlik ğoyalari deb nomlanib,
Ishning maqsadi: boshlangich sinf ōqish darslaridagi berilgan matnlar orqali ōquvchilarni mustaqillik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yōllarini kōrsatish.
Tadqiqod obyekti: Farğona viloyati Boğdod tumani 45-umumta'lim maktabi, boshlanğich sinf ōqituvchilari va ōqituvchilari (4-sinf)
Tadqiqod vazifalari:
a) ōqish darsliklaridagi matnlarni mazmun jihatdan guruhlash.

b) Matnlardagi vatanparvarlik mavzularini ōrgatishda luğat ustida ishlash.
v) Turli janrdagi asarlar orqali ōquvchilarda mustaqillik va vatanparvarlik ğoyalarini singdirish.
Tadqiqodning ilmiy farazi:
1. Ōqish darslaridagi matnlarni guruhlarga ajratish mavzuni tushuntirishni yengillashtiradi.
2. Vatanparvarlik ğoyalari asosidagi matnlar ōquvchilarni oğzaki va yozma nutqini ōstirishga yordam beradi.
3 Mavzular bōyicha pedagogik texnalogiyalarni qōllash ijobiy samara beradi.
Tadqiqodning metodologik asosi:
Ōzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, „Ta'lim tōğrisida"gi qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Ōzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan „Davlat ta'lim standartlari tōğrisidagi qonun", Oliy va ōrta maxsus ta'lim vazirligi buyruqlari, qarorlari va farmoishlari
Bitiruv malakaviy ish:
Kirish, 2 ta bob va 4 bōlimdan iborat bōlib, yuqorida keltirilgan fikrlarni shaxs ongiga singdirishni kichik maktab yoshidan boshlab amalga oshirish

davrning talabi va bugungi kun-
ning dolzarb masalasi ekanligi-
ni kõrsatsa, boshlanğich sinf
õqish darslari uchun berilgan
mustaqillik va vatanparvarlik
ğoyalari singdirilgan adabiy
matnlarni berilishi va uni õqi-
tilishi talabni amalda bajarila-
yotganligini isbotlaydi.

I Bob Boshlangich ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori va unda ōqish darslarini ōziga xosligi.

Mazkur bob boshlangich ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori va unda ōqish darslarini ōziga xosligi deb nomlanib, unda ōquvchilarni boshlangich ta'lim bosqichida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari hamda ōqish darslarining ta'limiy - tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari yuzasidan nazariy ma'lumotlar yoritilgan. Jumladan Vatan, Mustaqil Ōzbekiston, milliy an'analar, tilimiz, ōzbek xalqining madaniy merosi uning bugungi kundagi ahamiyatini bilish masalalari keng yoritilgan.

## 1.1 § Õquvchilarni boshlanğich ta'lim bosqichida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari

Ma'lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi kõp jihatdan ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat õzgarishlari, yuqori samaradorlikka erishish ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi, amaliy faoliyatdagi õrnini qay darajada topayotganligi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim - tarbiyadagi sifat õzgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohada ijobiy yangilik kiritish bilan belgilanadiki, bunga innovatsion jarayon ilğor pedagogik texnalogiyalarni joriy qilish orqali erishiladi.

Bugungi kunda Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining hayotimizda õz õrnini va amaliy ahamiyatini topishda diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa „Ta'lim tõğrisida" gi Qonun va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi ta'limga, xususan, uzluksiz ta'lim tizimining asosini tashkil etuvchi boshlanğich ta'limga bõlgan talabning ijobiy tomonga õzgarishga olib keldi. Boshlanğich ta'lim

asosan ōquvchining ongiga savodxonlik asoslari va hisoblash tafakkuri elementlarini singdirish davridan iboratdir. Demak, bu davrdagi savodxonlik uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bōginlarini intelektual salohiyatli bōlishligiga mustahkam zamin yaratadi. Muxtaram prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, „Agar poydevori mustahkam bōlsa imorat baquvvat bōladi". Ya'ni boshlanğich ta'limda mustahkam bilim va tarbiya berilsagina qaysi fan bōlishidan qat'iy nazar, yuqori sinflarda ōquvchining ōzlashtirishi oson kechadi.

Boshlanğich ta'limning asosiy maqsadlaridan biri ham umumiy ōrta ta'lim uchun zarur bōlgan savodxonlik va hisoblash haqidagi bilim, kōnikma va malaka asoslarini shakllantirishga qaratilganidan dalolat beradi. Boshlanğich ta'limning mazmunini quyidagicha kōrsatish mumkin.

— birinchi va ikkinchi sinflarda bolalar maktab hayotida faoliyat kōrsatishga tayyorlanadilar. Ōquv fanlaridan umumiy tushunchalar beriladi. Ōqish, yozish, hisoblash, kuzatish va mehnat malakalari hosil qilinishiga, savodxon-

lik tōliq egallanishiga asosiy e'tibor qaratiladi
— uchinchi, tōrtinchi sinflarda bilim, kōnikma va malakalar yanada mustahkamlanadi dastlabki nazariy tushunchalar va tasavvurlar hosil qilinadi. Bunda amaliy ishlar kōlami kengaytiriladi va bolalar mustaqil faoliyat kōrsatishga, shu tariqa ōrta umumta'lim tizimida muvaffaqiyatli ōqib ketishga tayyorlanadilar. Bir sōz bilan aytganda boshlanğich ta'limning mazmun va mundarijasi jamiyat taraqqiyoti hamda davr talablari darajasiga mos ravishda yangilanib boraveradi.

Ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya birligi hisobga olingan holda bolaga ōquv, idrok hosil qilish va shu bōyicha uni tarbiyalash kōzda tutiladi.

„Avesto" da bu haqda shunday fikrlar keltirilgan:

„Tarbiya — jamiyatning asosi, shuning uchun bolalar yaxshi tarbiya olmoği, yaxshi ōqish va yaxshi yozishni bilmoği lozim. Bolalar voyaga yeta borgani sayin tōrt narsani: eng avvalo, kōchat ekib boğ yaratishni, uy-rōzğor buyumlarini

yasashini, chorvani boqishni hamda ekin ekishni yaxshi ōrgatish, mana shu tōrt narsani bola yaxshi bilsa, xor bōlmaydi, faravon hayot kechiradi".

Tarbiya qadimdan ōz murakkabligi va dolzarbligi bilan har bir zamonda ōziga xos e'tibor ahamiyatga ega. Ayniqsa shahs komolotida, xususan, ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga kōra tarbiya ildizi avvalo oiladan boshlanadi, uning davomi esa maktab hisoblanadi. Shunday ekan maktabda tarbiya jarayonining ham ilk bosqichi boshlanğich ta'limda ōz aksini topadi.

Boshlanğich ta'lim ōquv rejasiga kiritilgan har bir ōquv predmeti mohiyatidan komil shaxsni tarbiyalash maqsadini kōzda tutadi. Xususan, bugungi kunda katta ahamiyat kasb etayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida, ōtmish, ajdodlar siymolariga cheksiz xurmat, ōzligini anglash va tuğilib ōsgan zamin farzandi sifatida ōz mas'uliyatini his qila bilish va munosib avlod bōlishga harakat qiladigan ertangi kun yaratuvchilarini tarbiyalashdan iborat.

Vatanparvarlik haqida sōz yu-

ritilar ekan, avvalo Vatan tushun-chasiga izoh berish maqsadga muvofiqdir. Vatan - yurt ma'nosini anglatadi. Vatan - bu inson va uning avlod-ajdodlarining kindik qoni tōkilgan muqaddas dargohdir. Bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari chinakamligi shakllanib, ōsib, kamol topib boradigan zamindir.

Kichik yoshdagi ōquvchi ongiga ilk Vatan tushunchasini u ōz hayotida uchratgan, bōlgan voqealar timsolida ōrgatish, ana shunday usullardan foydalanish juda yaxshi samara beradi. Masalan, bolaga siz biroz ōzingizdan yiroqroqda bōlgan qarindoshingiznikiga mehmonga bordingiz. U yerda sizni juda yaxshi xurmatlab, mehmon sifatida yaxshi muomalada bōlyapti. Biroz vaqt ōtgach, sizni negadir ōz uyingizga ketgingiz kelyapti. Chunki siz ōz uyingizni sogindingiz. Yoki, kichik yoshli ukangizda mana shu xolatni kuzating. U ham sizga ōxshab ōz uyiga ketgisi keladi. Uyga kelgach esa yana ōz ōyinini davom ettirib ōynab ketaveradi. Har ikkala holatda ham inson ōz

ōyinini qōmsashi, soģinishi va ōz uyini sevishi holati yuz beryapti. Mana shu narsa Vatan, makonni sevish va har qachon unga muhabbat ruhida yashash holatiga misol bōladi. Ana shu tuģilib, yashayotgan uyimiz, ōz qishloģimiz, ōz yerimiz Vatanimizdir. Demak insonda Vatanga muhabbat, istiqlol ģoyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qobilyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarishlariga imkoniyatlar yaratish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh omilidir.

Bugungi kunda vatanparvarlik tushunchasi mustaqil Ōzbekiston uchun yanada kengroq ma'no va mazmunga ega bōlib qoldi. Zero, shunday ekan har bir ōquvchi Vatan muvaffaqiyatiga ōzining shahsiy xizmati – burchi va mas'uliyati borligini tōla idrok etsin.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib bugungi kun ōqituvchisi ōz ōquvchilarida vatanparvarlikni shakllantirishda quyidagilarga erishishi lozim.

1 Ona Vatanga bōlgan muhabbat, uni sevish, ezozlash. Uning ravnaqiga har bir ōquvchini ōz xissasini qōshishga erishish.

2 Vatan, Mustaqil Ōzbekiston tushun-

chalarini ōquvchi ongiga singdirish va unga sodiq bōlish.

3 Vatanimiz xalqiga, uning an'analariga tili va madaniyatiga muhabbat va xurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga ōz xissasini qōshish, uning haqiqiy jonkuyari bōlish.

4 Ōzbek xalqining madaniy merosi hisoblangan madaniyat, san'at bugungi kundagi ahamiyatini bilish.

5 Ōz millatiga, Ona Vataniga, iymoniga sodiq bōlish.

6 Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obrosiga hissa qōshish xalq shon-shuhratini, manfaatini ōylash, insonparvar bōlish va boshqalar. Chunki vatanparvarlik shahsni axloqiy madaniyatini shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uzluksiz ta'limning poydevori hisoblangan boshlanğich ta'limdan boshlanadi, chunki shaxs kamoli ilk bosqichi oiladan, keyin maktabdan boshlanadi.

## 1.2-§. Õqish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari xususida.

Õqish darslari õz mohiyati, maqsad va vazifalariga kõra boshlanğich ta'lim tizimida õziga xos alohida õrin tutadi. Barcha predmet darslarini õqish faoliyatisiz tasavvur etib bõlmaydi. Chunki bir maromda ifodali õqishni õrgatishga oid usullar, yõl-yõriqlar bilan õqish darslaridagina shuğullaniladi. Shu bilan birga ularga tabiat, atrofimizni õrab turgan olam, vatanimiz õtmishi, buguni va ertangi taraqqiyoti, kattalar va bolalar hayoti, mehnat, istiqlol va milliy qadriyatlar kabi turli mavzular bõyicha atroflicha tushuncha berilgan. Mazkur mavzularga oid matnlar õquvchilarning aqliy, axloqiy va estetik kamolotiga hizmat qilishga qaratilgan.

Õqish darslarida õqishning barcha bosqichlariga doir mavzular belgilab berilgan. Uning õziga xos xususiyati kundalik hayot bilan chambarchas bogliqligidir. Tanlangan mavzular bõyicha õquvchilarga kundalik hayot bilan insoniy

munosabatlar bōyicha bilim va tarbiya berishni ta'minlaydi. Ularning ichida mavsumiy tamoyil ōqish rejalashtirilgan tabiat haqidagi mavzu alohida ajralib turadi. Maqsad ōquvchilarga tabiatni asrash, qadrlash haqidagi rang-barang tushunchalarni shakllantirish orqali ona zamin va Vatanga muhabbat tuyğularini uyğotishdir.

Tabiatga oid mavzular yordamida ōquvchilar tabiatdagi ōzgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olami haqidagi rangbarang bilimlarni egallaydilar. Ular ōquvchilarni kuzatuvchanlikka tabiatni sevishga, unga nisbatan tōğri munosabatda bōlishga ōrgatadi.

„Ōqish kitobi" darsligidagi materiallar sinfdan sinfga ōtgan sari mavzu jihatdan ham soddadan murakkabga tomon kengayib boradi. 1-sinfdagi mavzular keyingi bosqichlarda ham kengaygan tarzda davomchi sifatida kiritilgan. Natijada ōquvchilarning oldingi bilimlari tōldiriladi va boyitiladi.

Darslikdagi har bir mavzu uchun tanlangan badiiy matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, ōquvchilarning bilim

darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratildi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz ōtmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tōg'risida va ular amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar tōg'risida bilim beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqida matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi matnlar ōquvchilarni faqat ōtmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularga Vatanga muhabbat va mustaqillik tuyg'ularini ham shu tariqa singdiriladi.

Vatanimiz ōtmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida ōquvchilar ōtmish bilan bugungi mustaqillik kunlarini taqqoslash imkoniga ega bōladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bōlsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog'liq mavzudagi asarlar tahliliga alohida e'tibor berish zarur.

Ōqish darslarida matn ustida ishlash alohida ōrin tutadi. Matn ustida ishlash matn bilan tanishtirishdan boshlanadi va qayta hikoyalash, qisqartirib hikoyalash, tōliq hikoyalash, savollarga javob topish, asar mazmuni yuzasidan reja tuzish va tahlil qilish orqali davom ettiriladi. Ōquvchilar matn ustida ishlash orqali undagi obrazni ifodalar, hikmatli sōzlarni ōzlashtirishga harakat qiladilar.

Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ōsha asarning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutiladi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bağriga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka ōrgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga dahldor kinofilmlar nomoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Ōqish darslarida berilgan mavzular ōquvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularning oğzaki va yozma nutqini tōğri shakllantirishga yordam berishi, nutq

madaniyatini tarbiyalashi lozim.

Ōqituvchi uchun eng muhimi shundaki, bola dars davomida ōzlashtiradigan bilim, kōnikma va malakalar hamda shakllanadigan xis-tuyğu kelajak hayotda zarur bōlishini tushinib yetsin.

Sinfda ōqish darslarining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

1 Ōquvchilarda yaxshi ōqish sifatlari: tez tōğri, ongli va sifatli ōqish malakalarini shakllantirish.

2 Bolalarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli olishga ōrgatish, kitobga muhabbat uyğotish; ōquvchini oddiy kitobxondan chuqur muloxaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga kōtarish

3 Ōquvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish

4 Ōquvchilarni axloqiy-estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash

5. Ōquvchilarni boğlanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini ōstirish.

6 Ōquvchilarning hayolot olamini boyitish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir vazifani bajarishning aniq va

ilmiy metodik usullari mavjud. Ammo ular boshqalari bilan ōzaro bog'liq holda ōqish darslari va sinfdan tashqari ōqish mashgulotlarida hal qilinadi.

Yaxshi ōqish sifatlarini egallash maktabda ōqitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli ōzlashtirishni ta'minlaydi.

Ōqish jarayonidagi asosiy bosqich, ōquvchilarni tōgri, tez va ravon ōqishga ōrgatishdir.

Ōquvchi ravon ōqiy olmasa diktant ham yoza olmaydi. Ōqiganining ma'nosini tushunmasa masala topshiriqlarni ham bajara olmaydi. Shuning uchun ham ōqituvchining bu jarayonda mas'uliyati juda yuqori bōladi. Bu mas'uliyatni ōqituvchi his qilib, ōquvchining ōqishga munosabatini qiziqtirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha usullaridan foydalanishi kerak.

Yaxshi ōqish sifatlarini egallash boshlanğich sinf ōqish darslarining vazifasidir. Yaxshi ōqish malakasining sifatlari deganda tez, tōgri, ongli va ifodali ōqish tushuniladi. Ōqish malakasini takomillashtirish esa ōquvchilarda yaxshi ōqish malakasini shakllantirish tushuniladi. Ōqish sifatlari bir-biri bilan

ōzaro bog'liq bōlib, ongli ōqish ōqishning asosiy sifatlari hisoblanadi.
Agar ōquvchi tez ōqisa-yu, anglab ōqimasa, ōzi ham boshqalar ham tushunmaydi. Tōg'ri ōqish esa ongli ōqishga hizmat qiladi. Tōg'ri, tez, ongli va ifodali ōqishning asosidir. Ōqish malakasini shakllantirish jarayonini psixolog T.G. Egorov 3 bosqichga bōladi: analitik, sintetik va avtomatlashgan.
Savod ōrgatish davriga analitik bosqich tōg'ri keladi. Bunga sōzni bōg'in-harf tomonidan tahlil qilish bōg'inlab ōqish malakasini shakllantiradi.
Sintetik bosqich uchun sōzni sidirg'asiga ōqish xarakterlidir. Bunda sōzni kōrish orqali idrok qilish va uning talaffuzidan sōz ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. Ōquvchilar sintetik ōqishga 3-sinfda ōtadilar. Bundan keyingi yillarda ōqish avtomatlasha boradi.
Ōquvchi xato ōqimasligi uchun uni tez, tōg'ri, ongli va ifodali ōqishga ōrgatish kerak.
Tōg'ri ōqish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan ōqish tushiniladi, ya'ni tōg'ri ōqish sōzning

tovush - harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan sōzdagi biror tovush yoki bōginning tushirib qōymay, ortiqcha qōshmay, harflarni ōrnini almashtirmay aniq talaffuz qilib sōzga urǧuni tōǧri qōyib ōqishdir.

Maktab tajribasi va maxsus tekshiruv natijasiga kōra ōquvchilar kōproq ma'nosini tushunmaydigan sōzlarni ōqishda xatoga yōl qōyadilar. Xato qilib ōqishni oldini olish uchun:

— matnni ōqishdan oldin uning mazmunini qiyinlashtiradigan sōzlarni luǧaviy ma'nosini tushuntirish;

— ōqilishi qiyin bōǧinli, morfemik tarkibli sōzlarni matnni ōqishdan oldin bōǧinlab ōqitish;

— vazifalarni tushunarli qilib topshirish orqali darsda matnni diqqat e'tibor bilan ōqish uchun sharoit yaratish.

— oldin matnni ichda ōqish

— matn mazmunini tushuntirish va ovoz chiqarib ōqishga tayyorlanish maqsadida ōquvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni ōqishini muntazam tekshirib turish;

— xatoni harakteriga qarab uni

metodik tomondan tōgri kuzatish.
Masalan, ōquvchi sōz ohiridagi qōshimchalarni notōgri ōqisa, ōquvchini ōqishdan tōxtatmasdan xatoni tōgrilash mumkin. Xato ōqish bilan gapni mazmuni buzilsa qayta ōqish usulidan foydalaniladi. Ōquvchi berilgan savolga javob berish uchun gapni qayta e'tibor bilan ōqiydi.
Tez ōqish matn ustida ishlash yuzasidan ōquvchilar bajargan vazifaning xarakteriga ham bogliq.
Ifodali ōqish matn ustida ishlash bilan bogliqdir. Ifodali ōqish ongli ōqishning negizida shakllanadi. Uni tashkil etishda asosiy vositalar: nafas, ovoz va nutq a'zolarining meyoriy harakatini tōgri anglash va adabiy til me'yorlarini egallash muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham ifodali ōqishning nazariy jihatdan yaxshi bilish, uni amaliy rōyobga chiqarish ōqituvchidan juda katta pedagogik mahorat, uslubiy tayyorgarlikni talab etadi.
Ōquvchilarning ifodali ōqishga ōrgatish uchun, eng avvalo, bu sa'y - harakat maqsadi, mazmun va vazifalarini tōgri belgilamoq lozim.

Ular quyidagilar
1 Adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda tilimizni boshqa unsurlardan saqlash.
2 Nutqimizni ravon va gōzal bōlishiga erishish.
3 Orzu-xayol, quvonch-tashvish va intilishlarimizni tinglovchilarga oson, mantiqli va ta'sirchan yetkazishga harakat qilish.
4 Ona tilimizning ulug'ligini his qilish sōz qudratini anglay bilish.
5 Notiqlik san'atini egallash.

Voqea va hodisalarni kōzlangan maqsad yōlida tushuntirish ōqituvchi mahoratiga bog'liq. Har bir ōqituvchining faoliyati esa bevosita dars jarayonida sōz, til nutq bilan bog'langandir. Shuning uchun ōqituvchi darsda ōqitiladigan mavzuni faqat gapirib berish bilan cheklanmay, uni jonlantirib badiiy shaklda ma'lum bir izchillikda talqin etishi lozim. Dars jarayonida ōqituvchi quyidagi omillarga etibor qaratsa maqsadga muvofiq bōladi:
1 Badiiy asar namunalarini ifodali ōqishga erishish uchun matnni aniq, tushinarli va tōg'ri bayon etish nutqning ta'sirchanligiga e'tibor qaratish.

2 Õquvchilarning bir-biriga taqlid qilib õqishini yõlga qõyish (õrtogining chiroyli gapirishiga, yurishiga havas bilan qarash)
3 Kechalar, musobaqalar, uchrashuvlar va tomoshalar uyushtirish (jamoa nutqini tinglash)
4 Badiiy asarlardagi ba'zi sõzlarning ma'nosiga izoh berish, gap tuzdirish.
5 Rasmlarga qarab (õqituvchi õzi yoki õquvchilar ishlab kelgan rasmlarga jalb qilib) sõzlashga õrgatish.
6 Õquvchilarni uy vazifalarini oynaga qarab mashq qilishga õrgatish.
7 Õqituvchilarni jozibali, ta'sirli nutqda gapirishi.
8 Nutq pauzadan õrinli foydalanishi, dars davomida shoshilmay, goh baland, goh pastroq ovozda gapirishga õrgatishi lozim. Ayniqsa ohangga alohida e'tibor bermoq kerak. Chunki uni nutq faoliyatida õrni katta.

Dars jarayoni faqat mavzuni õquvchiga yetkazib berish emas, balki õquvchilarning fikrini fikrlash qobilyatini, nutqi, badiiy didini, estetik va ahloqiy madaniyatini rivojlantirishni ham õz ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kõrinadiki, õqish

darsi nafaqat bolaga savod, bilim beradi, balki, uning shaxsini tarbiyalaydi ham.

Sinflarda ōqish darslarining ta'limiy - tarbiyaviy ahamiyati bir-biri bilan uzviy boğlanadi. Bu hol ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati birligi haqida tōxtalishga imkon beradi. Ōqituvchi uchun eng muhimi shundan iboratki, bola ōzi oladigan bilim unda shakllangan his-tuyğu hayotda zarur va kerak ekanligini tushunsin. Bu ōrinda ōqish darslarida barcha ishlar „Davlat ta'lim standartlari" talablari asosida tashkil etiladi. Ōqish darslarida ōqish odobi, sōzlashish odobi kabi qator ijobiy ishlar amalga oshiriladi.

Ma'rifiy matnlar ōqitiladi va ulardagi asosiy ğoyalar tahlili davomida singdiriladi.

Ōquvchilar asar mazmunini ōzlashtirish bilan unda bayon etilgan asosiy fikrni anglab olishga, fikrlar ōrtasidagi boğlanishni belgilashga ōrganadilar. Badiiy asarni ōqib borishlari barobarida ularda ōzlarini ōrab turgan muhit, Vatan va uning tabiati, kishilar mehnati haqida ham tasavvur hosil bōladi.

Ōqish darslarida olib boradigan har bir jarayon ōquvchi shaxsini shakllantiradi.

II Bob Õqish darslarida mustaqillik va vatanparvarlik mavzusidagi matnlar va ular ustida ishlashning ba'zi masalalari

Ishning mazkur bobida vatanparvarlik va mustaqillik ğoyalarini boshlanğich sinf õqish darslari orqali singdirish yõllari, bu mavzularni õrganishda luğat ustida ishlashning õziga xosligini amaliy tomonlari amaliyot davridagi tajribalarga asoslanib yoritilgan. Amaliyot tajribasidan kelib chiqqan holda 1–4 sinfar „Õqish kitobi" dagi vatanparvarlik va mustaqillikka yõğrilgan bõlimlarni alohida kõrib chiqib, ularni õquvchilarga yetkazish yõllarini ishlab chiqqan.

## 2.1 § Õqish darslari orqali kichik yoshli õquvchida mustaqillik va vatanparvarlik ğoyalarini shakllantirish

Boshlanğich sinf õqish darslari yuqori sinflardagi adabiyot darslarining tarkibiy qismi bõlib, uni õqitishdan maqsad, õquvchilarimizga tariximizni õrgatish, tabiatni asrash, qadrlash tushunchalarini shakllantirish orqali ona-zamin va Vatanga muhabbat tuyğularini uyğotishdir.

Boshlanğich sinf õqish darslari uchun mõljallangan „Õqish kitobi" darsligida turli ilmiy-ommabop maqolalar, adabiy asarlar berilgan bõlib, ular mazmun-mohiyatiga kõra katta bõlimlarga ajratilib bõlib berilgan. Har bir yirik bõlim õz ichiga janriy jihatdan har xil, ğoyaviy mushtarak bõlgan adabiy matnlarni qamrab oladi. Masalan 1-4 sinf „Õqish kitobi" darsligida vatnni madh etuvchi kichik yoshdagi õquvchi shaxsida mustaqillik va vatanparvarlik ğoyalarini shakllantiruvchi „Õzbekiston – Vatanim mening", „Biz – buyuklar avlodi", „Ona yurtim – oltin beshigim", „Ona bitta – Vatan

yagona", „Istiqlolim – istiqbolim", „Ulug'lardan o'rganmoq – oqillik", „Vatan posbonlari", „O'zbekiston – Vatanim manim" kabi bo'limlar berilgan bo'lib, bo'lim ona-Vatan, uning boyliklari, Vatanimiz tarixi, bugungi kuni va kelajagi, yurt oldidagi farzandlik burchi yoritib berilgan asarlarni o'z ichiga oladi.

Bu bo'limlardagi adabiy matnlar vatan tushunchasini kichik maktab yoshidagi bolada paydo qilish, unda vatanparvarlik va mustaqillik g'oyalarini shakllantirish, tug'ilib o'sgan joyi Vatani ekanligini tushuntirish, o'z ona yurti bilan faxrlanish, iftixor tuyg'usini bilish, ajdodlari, ularning vatan uchun qilgan mardonavor harakatlarini o'rgatadi.

1-sinf „O'qish kitobi"ga kiritilgan vatanni madh etuvchi va o'quvchilarda ilk vatanparvarlik va mustaqillik g'oyalarini shakllantiruvchi asarlar, she'rlar, maqollar va kichik matnlar kiritilgan. Berilgan adabiy matndan so'ng topishmoq va to'ldirishga xizmat qiluvchi hikmatli so'zlar hamda o'gitlar berilgan.

Darslik boshida epigraf tarzida berilgan yurtboshimizning „Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli,

dono va albatta baxtli bōlishlari
shart " degan gaplari endigina
savoddan chiqqan ōquvchi qalbida
ona - vatan oldidagi burchini ang-
lashga va yaxshi ōqib davlati-
miz rahbari ishonchini oqlashga
undaydi va shu bilan birga uni
butun bir mamlakat ishonch va
yuksak orzular bilan kutayotga-
nini xis qilgan holda, jamiyat
uchun naf keltiradigan, ōz bili-
mi va qudrati bilan davlatimiz-
ni jahon mamlakatlari sirasida
nufuzini yanada oshirishga da'vat
etadi.
2 - sinf „Ōqish kitobi"dagi „Ona yur-
tim — oltin beshigim " bōlimi 1 - sinf-
dagi „Ōzbekiston vatanim mening" bō-
limini davomchisi sifatida ōqitiladi.
Bu bōlimda ōn beshta adabiy matn
she'r, hikoya, qissa, kichik ilmiy-om-
mabop matn bōlib, ularni ōrganish
va ōqitish janrlarni ōqitish meto-
dikasi asosida amalga oshiriladi.
3 - sinf „Ōqish kitobi"da mustaqil-
lik va vatanparvarlik ruhidagi
matnlar „Ona bitta - vatan yagona",
„Ōtmishdan ōrganish burchimiz", „Va-
tan posbonlari" bōlimlariga kiritilgan
bōlib, ularni ōqitishni tōg'ri amalga
oshirish, kichik maktab yoshidagi
ōquvchilarda vatanparvarlik hislati-

ni shakllantirish, milliy iftixor, ğurur tuyğusini uyğotish, yashayotgan ona zaminini oltinga teng boyliklarini qadrlash, boy tarixi, yengilmas va dono ajdodlarini bilish orqali ōzligini anglash kabi muhim masalalarni yaxshi natija bilan hal qilinishligiga olib keladi.

Darslikdagi Vatan, vatanparvarlik va mustaqillik ruhida adabiy matnlar ilmiy-ommabop asarlar, she'rlar, hikoya janridagi asarlar orqali yoritilgan. Bu mavzudagi ilmiy-ommabop asarlar ōquvchilarning tarixiy voqealar va sanalar haqidagi, ōtshimiz va hozirgi taraqqiyotimiz haqidagi tushunchalarini boyitadi. Bu jihatdan ular shaxs tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Erkin Malikovning „Vatanimiz gerbi - tuğro haqida ertak" asarining mazmuni ōquvchi uchun ancha qiziqarli. Matnni ōrganish jarayonida ōquvchilarga „Xumo qushi nima uchun eng kambağal odamning boyishga kōndi?" degan savolni berish orqali ōquvchini asarni ōqishda ziyraklikka chorlash mumkin. Ōquvchi shunda „Chunki kambağal kishi hech narsasi bōlmasada qalbi pok, sahiy, eng odil, eng

tōgri sōz, dono yigit ekan-da" degan javobni berishga harakat qiladi. Shuningdek, „Xumo qushi nima uchun gerbimizda tasvirlangan? Nima uchun boshqa qush emas, aynan xumo qushi tasvirlangan?" savolini berish orqali bolani ōylashga, izlanishga ōrgatish mumkin. Bunday izlanish ōquvchini asarni qayta ōqishga chorlaydi, shu bilan birga fikrlash salohiyatini oshiradi. Matndagi „chiroyli", „qanoatlari kumush qush" badiiy vositalari qushga qiziqish va muhabbat uyġotsa, „Men baxt qushiman" deyishi, uning bolaga salom bilan murojat qilishi „Nima uchun xumo qushi gerbimizdan joy olganligi haqidagi savolga javob topishga yordam beradi. „Podsho bōlish uchun kishi qanday sifatlarga ega bōlishi kerak?" degan savolni ōrtaga qōyish orqali esa bola ōz xulq-atvoriga sinchiklab nazar tashlashiga, ōz-ōzini anglashiga olib keladi.

Xurshid Davronning „Vatan mōrtabardir" ilmiy-ommabop asarni ōrganishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bobomiz Ōguzxondan dushmanlar uning davlatiga qarashli „Tashlandiq", „Hech narsa bitmay-

digan bir parcha yeri"ni talab qilishadi. Bobomiz esa „Vatan yolğiz bizning mulkimiz emas, Mozorda yotgan otalarimiz va endi tugilajak avlodlarimizni bu muborak tuproqda haqlari bordir. Vatandan ozgina bōlsa ham, bir qarich bōlsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yōqdir" deb javob beradi. Asar ōrganish jarayonida bosh ğoya sifatida ana shu fikrga e'tiborni qaratish va uni ōquvchi yoshiga mos holda batafsil yoritish, bugungi kun bilan boğlash orqali asarni mukammal ōrganish va unda kōzda tutilgan tarbiyaviy maqsadga erishish mumkin.

Asar ōz mazmun - mohiyatidan kelib chiqib ōquvchiga „Nima uchun mozorda yotgan otalarimizning haqlari bor, dedi?", „Ōğuzxonning ōrnida siz bōlganingizda qanday yōl tutardingiz va nima deb javob qaytargan bōlardingiz?" kabi savollarni berish orqali muammoli ta'limdan foydalangan holda ōquvchini mustaqil izlanishga va mustaqil izlanishga va mumkin.

„Ona bitta - Vatan yagona" bōlimida she'riy asarlar oltita berilgan bōlib, ular ichida Erkin

Vohidovning "Özbegim" she'ridan keltirilgan parcha juda yaxshi va örinli tanlangan. Uni öquvchilar sevib öqiydi, yod oladi. Erkin Vohidovning ushbu she'rini örganish orqali öquvchi qalbida milliy ğurur, iftixorni uyğotish, shuningdek, yurtimiz fikriga aylangan ajdodlarimiz nomi va ularning vatanimiz kuchli qudratga erishishida qöshgan hissalarini örganish orqali esa buyuklarimizga hurmat ehtiromni shakllantirish va ana shunday milliy ruhda tarbiyalash mumkin böladi.

Mustaqillik va vatanparvarlikka yöğrilgan adabiy asarlar 4-sinf öqish kitobiga ham bir qancha keltirilgan bölib, ular ilmiy-ommabop adabiy matn tarzidagi adabiy janrlar berilgan.

4-sinfda bu adabiy matnlarni öqitish boshlanğich ta'limning quyi bosqichlari 1-2-3 sinflardagisiga nisbatan yengilroq bölib, unda yangi pedagogik texnalogiyalarni bemalol qöllash imkoni juda katta böladi. Chunki, bolada 4-sinfga kelib vatan haqidagi tasavvur shakllangan, ma'lum darajada bilim, könikma va malakalarga ega böladi. Mustaqillik va

vatanparvarlik g'oyalarini his qila olish va o'z yurti, ona zamini haqida fikr va o'z qarashlariga ega bo'ladi va mustaqil fikr yuritib, uni yozma va og'zaki to'g'ri bayon qila oladi.

4-sinf o'qish darsligida mustaqillik, vatan va vatanparvarlik g'oyasi asos qilib olingan o'n beshta adabiy matn kiritilgan bo'lib, bu matnlar „Istiqlolim - istiqbolim", „Ajdodlarimiz - faxrimiz" bo'limlarida o'z ifodasini topgan.

Masalan „O'zbekiston" (A Oripov) she'rini o'qitishda Safo Ochil qalamiga mansub „Istiqlol taronasi" she'rini davomchisi sifatida bilim berish, tarbiyalash mumkin. She'r o'qilishidan avval o'quvchilarni Vatan haqidagi bilimlari mustahkamlanadi, so'ngra A Oripov shaxsiga to'xtalib, o'zbek xalq shoiri, O'zbekiston qahramonini asarlari, O'zbekiston Respublikasi madhiyasi muallifi sifatida o'quvchilardan shoir haqidagi bilimlari so'raladi va o'tiladigan „O'zbekiston" she'ri ham uning qalamiga mansub ekanligi ta'kidlanib she'rni o'qituvchi boshidan oxirigacha ifodali o'qib beradi. She'r mazmuni va undagi badiiy vositalarni o'quvchilar qay darajada bilish maqsa-

dida savol-javob ōtkaziladi. Ushbu she'rni ōqitish orqali ōqituvchi ōquvchi qalbida Ona-Vatanga muhabbat hissini uyg'otish bilan bir qatorda, uning yuksakligi, ulug'ligi, ta'rifini bitmakka qalam ham ojizligi va biz yashayotgan ona yurtimiz - Ōzbekiston ana shunday buyuk qancha madhi kuylansa-da dostoni tugamaydigan diyor ekanligini ōquvchi ongiga singdiradi va buyuk ōz navbatida buyuklar vatani bōlishligi, kelajak avlod, ertangi kun yaratuvchi vorislari ham shu Vatanga munosib farzand bōlib, ona tuprog'i, tug'ilib ōsgan zaminining vatanparvar inson bōlib kamol topishi kerakligi uqtiriladi va vatanparvarlik bugundan, yaxshi ōqish, tarbiyali bōlish, el uchun hizmat qilishdan boshlanishligi aytilib ōz oldilaridagi yuksak mas'uliyat anglashiga erishiladi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida amalga oshiriladi.

Yoki mana shu sinf darsligiga kiritilgan „Najmiddin Kubro" hikoyasini olaylik. Bu hikoya ustida ishlash orqali kichik yoshdagi ōquvchilarda tarixda yashab ōtgan vatanparvar ajdodlarimiz haqida bilim berish, asar g'oyasi, mazmun-

mohiyatidan kelib chiqib ōquvchilarni ana shunday – Najmiddin Kubro kabi vatanparvar, ōz ona xalqi va zaminiga sadoqatini namoyon etib, ōz ona xalqini har qanday qimmatbaho narsalarga alishmaydigan, fidokor farzand bōlib voyaga yetmoqlik kerakligi bola shaxsida shakllantiriladi. Xuddi shu ōrinda ōquvchilarni bugungi kunda global muammoga aylangan diniy ekstremizm va terrorizm, xoinlikdan yiroqlatish, ongini vayronkor ģoyalardan himoyalash, ģoyaviy bōshliqni oldini olish, qancha mol dunyo hadya etilmasin uni bari ona vatan, ona, ota, ustoz, dōst-birodar xalqidan aziz va ulug bōla olmasligini singdirish, uning ongi va shuuriga vatanparvarlik odamiylikni singdirilishiga erishiriladi.

Boshlanģich sinf ōqish darsligida berilgan mustaqillik va vatanparvarlik ģoyalariga asoslangan asarlarni ōrgatish bilan birga, yurtboshimiz asarlarini ham dars davomida mavzularga boģlagan holda ōrganib borish ham kichik yoshdagi ōquvchi qalbida mustaqillik va vatanparvarlikni shakllantirish bilan birga davlatimiz rahbari yuritayotgan siyosatda yoshlar kelajagi, yosh avlod

tagdiri muhim ōrin tutishligi, vatan ravnagi, xalq faravon hayotini ta'min etish, jamiyatda salbiy illatlarni bartaraf etishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish, milliylikka yōğrilgan tarbiya, insonparvarlik tamoyillari asosiy masala ekanligini bola yoshini hisobga olgan holda tushuntirish prizdentimiz olib borayotgan ishlarni nechoğli ahamiyatli ekanligini anglash bilan ularda rahbarimizga ōz imkoniyatlari darajasida yordam berish kuch bağishlab qanoat bōlish va ōz mas'uliyatini his qilishga ōrgatadi va bu holatni ham vatanparvarlik deyishimiz mumkin.

Boshlanğich sinflarda prizdentning „Ōzbekiston XXI asr bōsağasida" asarining „Barqarorlik shartlari hamda kafolatlari" deb nomlangan " bobining „Ma'naviy qadriyatlar va milliy ōzlikni anglashning tiklanishi" hamda „Davlatchilikni shakllantirish va mudofaa qobilyatini mustahkamlash" bōlimlarini 1-2-3 sinf ōqish darslarining ayrim mavzulariga boğlab ōrgatish mumkin. Ōqituvchi ōquvchilarga asarning milliy urf-odatlar

qadriyatlar, milliy ōzlikni tiklanishi haqidagi fikrlarni boshlanḡich sinf ōquvchisi idrok qila oladigan, mohiyatini anglab oladigan darajada lōnda, ta'sirli qilib ifodalab bermoḡi lozim. Va shu orqali ōqituvchi mustaqillikni amalga oshirish va mustahkamlashga ularning ahamiyatini ochib berishga alohida e'tibor qaratilmoḡi kerak. Ōquvchilar ongiga mustaqillik, ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirish va tiklash ḡoyalarini singdirishi zarur.

Xalqimizning istiqlol tufayli siyosiy mustaqillikni qōlga kiritilganligi tushunchasining mohiyatini ōquvchilar ongiga yetkazishda 2-sinf ōqish kitobining „Ona yurtim - oltin beshigim", 3-sinf ōqish kitobining „Ōzbekiston Respublikasining davlat madhiyasi" va „Vatanim - jannatmakon Ōzbekiston", 4-sinf ōqish kitobining ilk sahifalaridan ōrin olgan „Ōzbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi" va „Asrga tatigulik kun" kabi matnlarga boḡlash maqsadga muvofiqdir. Istiqlol tufayli erishilgan mustaqilligimizning haqiqiy ifodasi ōz Madhiyamiz, Bayroḡimiz va Gerbimizga ega bōlishdir. Bu

fikrlarni yuqoridagi mavzularga bog'lash orqali mustaqillik õz huquqimizni õzimiz belgilashimizga imkon berganligi va shu tufayli Konstitutsiyamiz qabul qilinganligi uqtiriladi

1-sinfda „Ajdodlarimiz fahrimiz", 2-sinfda „Mirzo Ulug'bek", 3-sinfda „Ulug'lardan õrganmoq aqillik" 4-sinfda „Ajdodlarimiz fahrimiz" bõlimidagi barcha matnlar orqali ajdodlarimiz merosi mustaqillik tufayli rõyobga chiqqanligi, at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, al-Farg'oniy kabi buyuk allomalarimizning yodini õrganishga imkoniyat yaratilganligi ta'kidlanadi

I. A. Karimovning „Õzbekiston XXI asr bõsag'asida" asarida, „Mamlakatni iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning chora-tadbirlari haqida" gi nutqida davlatchilikni shakllantirish, Respublika Qurolli Kuchlaridagi islohotlar, mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash haqida fikr yuritadi. Õquvchilarga ushbu fikrlarni dastur mavzulariga bog'lagan holda yetkazib, ular ongiga singdirish kerak. Lekin bu ma'lumotlar õquvchilarning yoshiga, saviyasiga mos bõlishi haqida õylab kõrmog'i kerak.

Vatanimizning qurolli kuchlari ōtmishda qanday bōlganligini, ajdodlarimizdan qanday sarkardalar, qōmondonlar yetishib chiqqanligini, ularning harbiy faoliyati haqidagi fikrlarni I.A Karimov asarlaridan olingan sodda, lōnda ma'lumotlar asosida yoritish mumkin. Ularning harbiy yurishlaridan maqsadlari nima ekanligi, bizning har qanday urishlarni hohlamasligimiz ularni tinch yōl bilan bartaraf etishga harakat qilishini ta'kidlanadi. Ushbu fikrlar 2-sinfda „Xushhabar", 3-sinfda „Vatan posbonlari" kabi mavzularga bogʻlanadi. Masalan „Xushhabar" asariga Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tuzilishi, armiya hayoti, Milliy armiyamizning vazifalari, tarkibiy qismlari haqidagi fikrlarni qōshimcha berish mumkin. Albatta, yuqoridagi zikr etilgan ōquvchilarga soddalashtirib yetkaziladi.

Ōqish darslari uchun har bir matn qaysi janr va mavzuda bōlmasin uning tag zamini chuqur tahlil qilishda mustaqillik va vatanparvarlik gʻoyasi bilan chambarchas ekanligini kuzatish mumkin. Bu esa shuni kōrsatadiki ōquvchilarni yoshligidanoq ya'ni boshlangʻich ta'limdanoq

mustaqillik va vatanparvarlik ru-
hida tarbiyalash, milliy, umum-
bashariy insoniy fazilatlarni ular
shahsida shakllantirishga ahami-
yatni kuchaytirish va alohida
e'tibor bilan qarash lozimligini
talab etadi chunki vatan tagdi-
ri ertangi kuni yosh avlodning
qōlida.

## 2.2 § Vatanparvarlik ruhidagi mavzularni ōrganishda luğat ustida ishlashning ōziga xosligi

Ma'lumki, sōz, predmet, belgi, harakat va miqdorga nom bōladi. Ular atrofimizdagi narsa hodisalarga, harakat va holatlarning nomi sifatida vujudga keladi. Ōquvchi maktabga kelgan kunidan boshlab, maxsus metod va usullar, ish turlari vositasida luğatini boyitib boradi. Ōquvchilar luğatning boyishida, birinchi navbatda uni ōrab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, ijodiy va ōqish faoliyati, kattalar va tengdoshlar bilan bōlgan munosabati asosiy manba bōlib hisoblanadi. Bola tabiatga, qurilishga, muassasalarga sayohat vaqtida turli tadbirlarda ishtirok etib, ularni kuzatish, turli kasbdagi insonlar bilan munosabatda bōlishi natijasida sōz, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli sōzlarni ōrganadi, ularni ōz sōzlariga aylantiradi.

Badiiy asarlar ōquvchilar luğatini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. Ōqish darslarining muvaffaqiyatli, yaxshi

tomonlaridan biri shuki, ōquvchilar luğati ma'lum mavzular bōyicha boyib boradi. Masalan, boshlanğich sinf ōqish kitoblarida „Ilm-aql chiroği", „Ajdodlarimiz fahrimiz", „Mehnatning tagi rohat", „Bahor - sevimli fasl", „Odob insonga husn", „Xalq oğzaki ijodi", „Ōzbekiston - vatanim manim" kabi qator mavzular berilgan. Ulardan „Ilm aql chiroği" bōlimiga shu mavzuga doir saboq, kalom, dono, muqaddas, bilim bulo-ği, bilim noni, shuur, sahifa, olim, oq beting, ōquv idrok, mash'al, qut donishmand, hikmatli gap, bilimdon, ōqishning qadri kabi sōz va iboralar dars jarayonida ōquvchilarning faol luğatiga aylana boradi. Shu bōlimda ma'naviy ma'rifiy, ahloqiy tushunchalarni ifodalovchi farz, burch assalom, rahmat, kitob, muqaddas, boylik, baxtnoma, inson uluğ, keksaning bochkanaligi, ezmalik, izzat-xurmat, landovur, ishyoqmas, tanbal, vaqt ğanimat kabi sōz va iboralar ham ōquvchilar tomonidan ōzlashtiriladi.

Boshlanğich sinf ōqish darslarida luğat ustida ishlash jarayonida nafaqat ōquvchi luğat boyligi oshadi, balki unda notiqlik-

ning elementar sifatlarini tarkib toptirish ham mumkin. Shu bilan birga unda badiiy til vositalarini ochib berish nutqini gōzallashtirish, adabiyotga havas uygōtish, sōz sehrini qanchalik kuch-kuchliligini kōrsatish va muomala madaniyatini ham shakllantirishga erishiladi.

3-sinf ōqish kitobidan ōrin olgan asarlarda badiiy til vositalarini kōplab ōrgatish mumkin. Masalan „Ayamajiz" (Qudrat Hikmat) she'rida „Bōralar qor qopalar", „Boğlar sokin mizğishar misoli oq kapalak", „Muz oynalar sovuq yeb" misralarida ōxshatish, jonlantirish, „Sahiy ona tabiat", „Quchoğida havo sof" metafora, „Ayamajiz izğiydi", kōchalarlarda tutoqib, shoh-shabbani tortqilar, yalmoğizdek yutoqib" kabi jonlantirish va ōxshatishlar qōllanilgan. Asar matni ustida ishlaganda quyidagi savollar yordamida bularni aniqlash mumkin:

1. Shoir qorni nimaga ōxshaydi (oq kapalakka)
2 Ayamajizni nimaga ōxshatadi ?(yalmoğizga)
3 „Muz oynalar sovuq yeb" misrasini" qanday tushunasiz? Oyna sovuq qotdimi ?

Ōquvchilar she'rda tabiatdagi narsa va xodisalarni gōyo jonlidek tasvirlanganligini kōradilar. Yoki mana shu sinf ōqish darsi uchun berilgan. Ushbu matnda ham kōplab jonlantirishlar qōllanilgan. Masalan, „Hamma yoqda sovuq izgirin kezadi", „Ingrar ogriq kabi tol, oynalarni bezar qish-gulkor", „Daraxt kurtaklari rohatlanib uxlamoqda", „Hozir urugʻlar tinch uyquda" kabi badiiy til vositalari savollar yordamida ōquvchilarga anglatiladi. Bunda „Matnning birinchi qismini ōqing. Unda qaysi sōz ōz ma'nosidan boshqa ma'noda qōllangan?" yoki „Matnning ikkinchi qismida jonsiz narsalarni jonlidek tasvirlagan ōrinlarni topib ōqing. Boshqa ma'noda qōllangan sōzlarni ōz ma'nosida qōllab, birikma yoki gap tuzing" kabi savol va topshiriqlardan keng foydalanish mumkin.

Umumiy ōrta ta'limning Davlat ta'lim standartlarida" boshlangʻich ta'lim bosqichida ōquvchilarning ona tili ta'limi sohasi bōyicha tayyorgarlik darajasiga qōyiladigan minimal talablardan biri fikrni yozma bayon eta olish bōlib, bu ōz navbatida lugʻat ustida

ishlashni tōğri yōlga qōyishni talab etadi.

Boshlanğich sinf ōquvchilarining ona tili sohasi bōyicha bilim va kōnikmalarni Davlat standarti bōyicha tekshiruv yozma ishlar asosida baholanadi. Fikrni yozma shaklda bayon etish ōquvchining luğat boyligiga, fikrni izchil bayon qila olishga bağliq bōlib qoladi. Boshlanğich sinf ona tili ta'limida ayni shu soha - luğat bilan ishlash, ōquvchilar savodxonligi sifatini oshirishga jiddiy e'tibor beriladi.

Maktabda nutq ōstirishning muhim kashflaridan biri luğat ustida ishlashni tashkil qilishga ōquvchilarning luğatini boyitishga alohida urğu berishga tōğri keladi. Buning uchun ōquvchi har bir darsda ōz luğatini yangi sōzlari bilan boyitib borish, ōzlashtirgan sōzlarini ma'nosini anglashi lozim.

Ōquvchi luğatini boyitishda quyidagi metodik ishlar amalga oshiriladi: ōquvchi puhta ōzlashtirmagan sōzlarni ma'nosini tōliq ōzlashtirishi yangi shu sōzlarni matnga kiritish ma'nosi yaqin sōzlarni qiyoslash antonimini tan-

lash yōllari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritiladi; ayrim iboraviy birliklarning ma'nosi ōzlashtiriladi; adabiy tilda ishlatilmaydigan sōzlarni ōquvchilarning faol luğatidan possiv luğatiga ōtkazish ishlari olib boriladi.

Umumiy ōrta ta'limning Davlat ta'lim standarti va ōquv dasturi"da IV sinf ōquvchilari uchun yil davomida majburiy ōzlashtirish zarur bōlgan 153 sōz birma-bir yozib kōrsatilgan. Ōquvchilar sōzlarni ona tili ta'limi sohasi bilan birga boshqa ōquv predmetlarida ham ōzlashtirib boradilar. Ona tili darslarida darslik oxiriga ōquvchilar ōzlashtirishi lozim bōlgan sōzlar imlosi va izohi bilan berilgan.

Xususan, luğat ustida ishlash ōqish darslarida ham amalga oshirilishini yuqorida kōrsatib ōtdik. Ōqish darslarida ham darslik oxiriga sōzlarning ishlash va izohi berilgan. Sōzlar izohi ōquvchi yoshiga mos holda tushuntirilgan.

3-sinf „Ōqish kitobi" oxirida alifbo tartibida sōz ma'nolarining izohli luğati berilishi har jihatdan e'tiborga loyiq. Mazkur izohli

lug'atda 56 ta sōzning lug'aviy ma'nosi izohlanadi. Natijada shu sōzlar ustida ishlaganda ham ōquvchilar lug'ati 56 sōz hisobiga boyiydi. Ōqish kitoblarida badiiy asarlar matndan keyin berilgan savol va topshiriqlarda ham sōzlar badiiy til vositalari izohiga ōrin berilishi ham ayni muddaodir.

Ōqish darslarida sōz ma'nosining tushuntirish ōquvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ōstiradi, ōqilayotgan matn mazmunini, voqealarning sabab-natija bog'lanishlarini ōzlashtirishni ta'minlaydi.

Sōz ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va ōquvchining diqqatini darsning asosiy mavzusidan chalg'itmasligi kerak. Buning uchun ōquvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bōlgan sōzlarni uning tushuntirishni qulay usullarini va darsning qaysi ōrnida tushuntirishni belgilab olishi maqsadga muvofiqdir.

Ōqish kitoblaridagi birinchi marta uchragan, bolalar ham ma'nosini bilmaydigan ayrim sōzlar matnni ōqishdan oldin tushuntiriladi. 3-sinf „Ōqish kitobi"dagi „Elim

deb, yurtim deb yashagan inson" matnida Movarounnaxr (ikki daryo oraliği), qonunshunos, yuzboshi, naql, madrasa, ulamolar, zahmdor, amirlar kabi sōzlarning ma'nosini tushunish ōquvchilar uchun mushkul. Bu sōzlarning ma'nosini ōqituvchi oldin ōquvchilarning ōzlaridan sōrash, keyin ōzi izohlashi zarur. Bu sōzlarni plakatlarga quyidagi tarzda yozib, sinfning bir chekkasiga ilib qōyilsa, bolalar uni vaqti-vaqti bilan ōqib ma'nosini esda saqlab qoladilar.

Movarounnaxr – ikki daryo oraliğidagi mamlakat

Yuzboshi – yuzta otliq askarga qōmondonlik qiluvchi harbiy boshliq

Qozi – shariat (diniy) qonunlar bōyicha ish yurituvchi shaxs

Ulamo – olimlar

Qonunshunos – qonunlar bilan shuğullanuvchi kishi

Madrasa – diniy oliy ōquv yurt

Zahmdor – jarohat yetkazuvchi

Amir – xonlik, podsholik unvoni

Matnni ōqish jarayonida sōzning ma'nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, ōquvchilar diqqati matn mazmunidan chalğitilmay, qisqa izoh berib ōtib ketiladi.

Kōchma ma'noda ishlatilgan sōzlar matn ōqilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan yaxshi tushiniladi.

Bundan kōrinib turibdiki, ōquvchilarning ōrganilishi kōzda tutilgan bilimlarni egallashlarida, ularni amaliyotda qōllashlarida tilning luğat boyligini ōzlashtirishlari va uni ōz mulkiga aylantirishlari muhimdir.

Boshlanğich ta'limda luğat ustida ishlashning umumiy yōl-yōriqlari, yōnalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularni mukammalligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Luğat ustida ishlash maxsus dars turi emas. U barcha predmet darslarida, asosan ona tili va ōqish darslarida darslik materiallarini ōrgatish bilan boğliq holda olib boriladi.

Ona tili darslarida luğat ustida ishlash ōquvchilar nutqini ōstirishga savodxonligini oshirishga, ularning sōz boyligini kengaytirishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga

qaratilganligi sababli maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun õquv jarayonida davom ettiriladi.
Luğat ustida ishlash ona tili darslarida reja asosida izchil olib borilishi lozim.
Õqish darslarida berilgan matnlar mazmunan bir-biriga yaqinligiga, mushtarakligiga kõra katta bõlimlarga birlashtirilgan. Mohiyatan yaqin mavzularni õrganish jarayonida õquvchilar luğati ham shu mavzular bõyicha boyib boradi.
Masalan, mustaqillik va vatanparvarlik ğoyalarini shakllantirishga, Ona vatan, yurt, millat, xalq haqida tushuncha bilim paydo qilishga hizmat qiluvchi adabiy asarlarni õrganish davomida, õquvchi nutqi mavzuni sõz va iboralar bilan boyitdi.
Õqitilgan har bir vatanparlik va mustaqillikka yõğrilgan adabiy matnni õrganishda luğat bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Luğat bilan ishlash õquvchi sõz boyligini oshirish bilan bir qatorda uni tilimiz tarixini bilishiga ham imkoniyat yaratadi.
Badiiy asarlar õquvchilar luğatini va nutqini boyitishda eng

ishonarli manba hisoblanadi. Õqish darslarining muvaffaqiyatli, yaxshi tomonlaridan biri ham ana shu Mustaqilligimiz va vatanimiz madh etilgan „Özbekiston - Vatanim manim", „Biz buyuklar avlodi", „Ona yurtim - oltin beshigim", „Ona bitta, vatan yagona", „Õtmishdan õrganish burchimiz", „Ulug'lardan õrganmoq oqillik", „Istiqlolim - istiqbolim" kabi bõlimlarni õrganish orqali kichik yoshdagi õquvchilarda mustaqillik va vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish bilan birga ularni sõz boyligini oshirish, tilimiz tarixiga, madaniy turmush tarziga qiziqtirish, uni õrganishga bõlgan ishtiyoqni yanada kuchaytirish, õtmish va bugunni taqqoslash orqali bugungi zamona imkoniyatlaridan unumli foydalanishga õrgatish mumkin.

Boshlang'ich sinflar uchun izohli, imlo lug'atlarining yaratilmaganligi lug'at ustida olib boriladigan ishlarni tõg'ri uyushtirishda biroz qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Lug'at ustida ishlash orqali õquvchilarning nutqiy madaniyatini shakllantirish, u agar qat'iy reja asosida izchil amalga oshirilsa õqituvchidan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt va sabr zarur.

# Xulosa

Ota-bobolarimizning asriy orzulari rōyobga chiqib, xalqimiz nurafshon istiqlol ne'matlaridan baxra olib yashayotgan ushbu zamonda Davlatimiz rahbari boshqa sohalar qatori ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga doimiy e'tibor va ğamxōrlik kelayotgani hech kimga sir emas.

Ōtgan davrda yurtboshimiz tashabbusi va rahnamoligida yaratilgan „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti sifatida maktab ta'limini orqada qolishiga barham berish, maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, uzluksiz ta'limni yagona tizimini shakllantirish bilan boğliq mavjud muammolarni bartaraf qilish maqsadida „Maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi", shu dastur talablarining ijro etilishi yōlida Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari e'lon qilindi.

Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirishning beshta asosiy yōnalishlarida ta'lim tizimida qōlla-

nilayotgan ōquv standartlarini va ōquv dasturlarini takomillashtirish borasida ham yōl-yōriqlar kōrsatilib ōtilgan.

Bugungi mustaqillik sharoitida ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan har qanday dasturamal hujjat zamirida yosh avlod bilimdon, baquvvat, iymoni mustahkam qilib voyaga yetkazish, milliy istiqlol ğoyasini ular qalbi va ongiga singdirish, yot va zararli ğoyalar ta'siridan saqlash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi asosiy vazifalar yotadi.

Xulosa qilib aytganda vatanparvarlik va mustaqillik tuyğusini shaxsga boshlanğich ta'limdanoq ongli singdirish, davlatimiz ōz oldiga qōygan yuksak masala - komil inson shaxsini tarbiyalashni amalga oshirishini tōlaqonli, samarali, jadal bōlishini kōzda tutadi

Yuqorida ōrganilgan kichik yoshdagi ōquvchi shahsida mustaqillik va vatanparvarlikni shakllantirish, unda boshlanğich ta'lim bosqichida ōqish darslarini roli, darslarda kōzda tutilgan tarbiyaviy maqsadlarga yaxshi erishish usul va uslublari, darslikda

berilgan mustaqillik va vatanparlikka yōğrilgan adabiy matnlar va ular ustida ishlash jarayoni mazmunli tashkillash kabi masalalarni hal etish ōqituvchida yuksak pedagogik mahorat va kuch, tashabbuskorlik va tashkilotchilik, nutqiy madaniyat talab qiladi.

Bir sōz bilan aytganda, bu - mustaqillik va vatanparvarlik tuyğusini kichik yoshdagi ōquvchi shaxsida shakllantirishda ōqish darslarida adabiy matnlar ustida ishlash jarayoni va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish bugungi kunda ōz dolzarbligi va muhimligi bilan ta'lim tizimida yuksak ahamiyatga molikligini saqlab kelmoqda.

Zero, farzandlar kamoli, yurt taraqqiyoti, kelajak istiqboli ōsib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi, ta'lim tizimida mustahkamligiga bog'liq.

1-soatlik dars ishlanmasi.
4-sinf Ōqish
Mavzu: Kelajagi buyuk, hur Ōzbekiston
Maqsad: a) ta'limiy maqsad: ōquvchilarning Ōzbekiston Respublikasi, uning davlat ramzlari haqidagi bilimlarini mavzu yuzasidan izohlash malakalarini oshirish, mustaqillik haqida tushunchalarini boyitish.
b) tarbiyaviy maqsad: vatanga muhabbat tuyğusini tarbiyalash, ularni fidoiylik, himmat, oliyanoblik kabi insoniy sifatlarni anglab borishga ōrgatish.
v) rivojlantiruvchi maqsad: ōquvchilarni sōz boyligini oshirish, nutqini ōstirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.
Dars turi: noan'anaviy (mustahkamlash)
Dars usuli: savol-javob sahna kōrinishi
Dars jihozi: Davlatimiz ramzlarining rasmi „Oltin sanalar" tabloni.
Darsning borishi.
Ōzbekiston Respublikasining davlat Madhiyasi yangraydi. Sōngra Madhiya yuzasidan qisqa savol-javob ōt-

kaziladi.
Õqituvchi:
— „Madhiya" sõzi qanday ma'noni anglatadi?
Õquvchi:
— „Madhiya" lotincha sõz bõlib „Tantana" ma'nosini anglatadi.
Õqituvchi:
— Õzbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi qachon tasdiqlangan?
Õquvchi:
— Davlatimiz Madhiyasi 1992 yil 10-dekabrda tasdiqlangan.
Õqituvchi:
— Õzbekiston Respublikasining davlat Madhiyasini sõzi va musiqasini muallifi kim?
Õquvchilar
— Õzbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasini Õzbekiston qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov yozgan, musiqasini kompozitor Mutal Burxonov bastalagan.
Õqituvchi:
— Madhiyamizda nimalar tasvirlangan.
Õquvchi:
— Bağri keng Õzbekistonimizning sõlim boğlari, vodiylari, osmonõpar toğlari, ufqlarga tutashgan vodiylari-yu, keng dalalari ifodalangan.
Õqituvchi
— 1-sentabr Mustaqillik kuni deb qachon e'lon qilingan?

O'quvchi
– O'zbekiston Respublikasi Mustaqil deb 1991 yil 31-avgustda e'lon qilingan.
O'qituvchi:
– Siz vatan deganda nimani tushinasiz?
– Tug'ilib o'sgan yerimiz, kindik qonimiz to'kilgan maskanni tushinamiz.
– Ona vatanim, senga fidodur jonu tanim. Qorli tog'laring, cho'lu biyobonlaring onamdek, otamdek qadrdondir. Yer usti, yer osti boyliklaring boyligimdir. Ey yurtim, Osiyoda yagonasan, bittasan, shuning uchun ham seni quyoshli o'lka derlar.
– Ona vatanim, senga fidodur jonu tanim. Men jahon tan olgan donishmandlar: al-Farg'oniy, al-Forobiy, al-Xorazmiy, Bahouddin Naqshbandiy, Amir Temur, Ibn Sino, Alisher Navoiy nabirasiman.
Dunyoga doston bo'lgan To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi avlodiman. Olamni mahliyo etgan qadimgi shaharlar: Buxoro, Samarqand, Xorazm men uchun jonli kitob. Shuning uchun ham derlar
(O'quvchilar jo'rlikda)
– O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston
Dostonlarda bitgan guliston
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.

— Ona vatanim bugun sen ozod-san, hursan, ōz doning, ōz nefting, ōz mashinang, ōz paxtang va oltining bor. Jahonda ōz ōrning, ōz obrōying bor. (ōquvchilar vatan haqida she'r aytadi)

Ōqituvchi:

— Xurmatli ōquvchilar davlatimiz ramzlaridan yana nimalarni bilasiz?

Ōquvchi:

— Bayroğimiz va gerbimiz ham davlatimiz ramzlariga kiradi.

Ōqituvchi:

— Tōğri aytasiz. Bayroq biror tashkilot, millat va davlatning belgisidir. Bularning orasida millat uchun eng muhim, uning mustaqilligi va xalqaro xurmatga egaligini bildiruvchi ramz bu davlat bayroğidir. Davlat bayroği muqaddas sanaladi va e'zozlab xurmatlanadi. Bayroq odatda gazmol parchasidan iborat bōlib, bōyi enidan uzunroq bōladi va enining bir tarafi dastaga biriktiriladi. Bayroq bir-biridan rangi va naqshlari bilan farq qiladi. Buning ajdodlarimiz juda qadim zamonlardan boshlab ōzlarining bayroqlariga ega bōlgan.

Aziz bolajonlar, hozir bizga bayroğimizdagi ranglar, oy va yulduzlar ōzlari haqida ma'lumot berishadi.

(Sahnaga bayroq kōtargan bolalar chiqishadi.)

1-ōquvchi

— Men moviy rang bōlaman yurtim osmonining bir parchasi. Bu olamda tinchlik bōlsin deganidir. Yana men tip-tiniq suvga ham ōxshayman. Ahir hayot oqin daryodir. Tilagim ana ōsha daryo hamisha tiniq va shaffof bōlsin. Hech qachon loyqalanmasin.

2-ōquvchi

— Men qizil rangdirman. Bamisoli tomirlarda oqqan qondirman. Hamma-hammani vatan bayroği ostida tinch, osuda, farovon yashashga, mehnat qilishga chaqiraman.

3-ōquvchi:

— Men oq rangman. Ōzim ham oq, kōnglim ham oq, niyatim hamisha pok. Shuning uchun ham elga oq yōl tilayman, deb Bayroqdan ōrin oldim. va unga mangu qoldim.

4-ōquvchi:

— Men yashil rangman. Yashillik, yasharish-yashnatish, ertangi kunga ishonish deganidir. Nonu nasiba, sof havo, omonlik deganidir. Orzularim naqadar buyuk, yurtim hamisha yashnab tursin. Uning issiq bağrida bolalar ōynab kulsin.

5-ōquvchi:

— Oymomaman, oymoma. Ertaklarga boymoma. Kōrinishim uch yoki tōrt kunlikdir. Niyatlarim baraka, qut, tōkinlikdir. Yōl yursalar yōllariga yondoshdirman. Tinch tunlarni, tinch kunlarga ulaydirman. Ōzbekiston sharafini olam aro sōzlaydurman.

6- ōquvchi:

— Biz ōn ikki yulduz - ōn ikki oymiz Jamlasangiz bir yilga joymiz. Yana biz ōn ikki burjmiz. Oy quyosh bilan harakatdamiz. Fasllar ōzgaradi. Yangi kun, yangi odamlar tug'iladi. Biz aks etgan yurt bayrog'i ham, ōzi ham dunyo turguncha tursin deymiz.

(Sahnaga gerb tasviri tushirilgan plakat quyosh, xumo qushi, oy, yulduz, paxta, Amu va sirdaryo timsolidagi bolalar tashrif buyuradi.)

Bola:

— Assalom, ey, chiroyli qush, qanoatlari kumush!

Xumo:

— vaalaykum assalom, ey mustaqil yurt bolasi.

Bola:

Isming nima ey qush, qanoatlari kumush?

Xumo:

— Men baxt qushi — Xumoman

Bola:

— E, ha, tanidim, sen haqingda ertaklarda ōqiganman. Ōqib ōyga tolganman.
Xumo:
— Nima uchun ōyga tolgansan, bolajon?
Bola:
— Qadimda bir gōzal yurt va uning zōravon podshosi bōlgan ekan. U ōzga yurtlarni bosib olib, boyligini talabdi. Odamlarini zindon, olimlarini gumdon qilibdi. Oxiri ōzining ham paymonasi tōlibdi, olamdan ōtibdi. Yurt podshosiz qolibdi. Ōshanda odamlar endi kimni podsho qilamiz, deb turishganida, yurt osmonida xumo qushi paydo bōlibdi. Donolar kengashib: „Shu qush kimning boshiga qōnsa, ōsha podsho bōladi," deyishibdi. Jarchilar jar solibdi: — Odamlar-u odamlar, eshitmadim demanglar, eshitganlar maydon sari yuringlar. Osmonda baxt qushi charx urmoqda. Shu qush kimning boshiga qōnsa, ōsha yurtga podsho bōladi.
Buni eshitganlar shoshib qolishibdi. Qanchadan qancha puldor-u amaldorlar ōzini taxt uchun shaylabdi, tishlarini qayrabdi. Ammo qush eng kambağal, eng sahiy va adolatli, tōğrisōz va dono kishining boshiga qōnibdi. Mamlakatda adolat

hukmron bōlibdi. Sen ōsha qush-san-a Xumojon!
Xumo:
– Yanglishmading ey mustaqil yurt bolasi. Kōp yurtlarni kezdim. Sening vataning xuddi ertaklardagi gōzal mamlakatga juda ōxsharkan. Shu bois yurting sari talpinib uchdim.
Bolalardan biri:
– Xumo qushning aytganlari tōgri, bu yurtning odamlari qadoq qōlli, bağri chōgli. Biz ham gerbdan non-nasiba, qut-baraka ramzi bōlib ōrin olganmiz.
Paxtaoy:
– Biz vatanning boyligi, iftixori.
Quyosh
– Bu yurt - mening yurtim. Unga nur-larimni mōl sochgumdir. Har tong baxt eshiklarini yanada kengroq ochgumdir.
Amu va Sirdaryo:
– Yurt - bir tan, bizlar uning joni-miz, tomirida oqqan hayot qonimiz.
Oymomo:
– Gerb uzra turibman osoyishdir os-monimiz.
Zuhro yulduzi:
– Men sizga yōlchi yulduz, adash-mas hech karvonimiz.
(Hamma jōrlikda)
– Sizlar baxtiyor avlod.

Gullasin bog' - bo'stonimiz
(Ishtirokchilar sahnadan chiqishadi)
O'qituvchi:
– Ana shunday bu ko'hna zamin aro O'zbekiston degan buyuk davlat barpo etilgan. Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi shirin orzularga cho'milgan. Ular dunyo bo'ylab, kezadilar, o'zlari xumo yanglig' sezadilar. Mana bolajonlar, muqaddas vatanimiz O'zbekiston va uning davlat ramzlari haqida keng qamrovli tushunchaga ega bo'ldingiz. O'zbekiston tayanchisiz yoshlarsiz. Vatanimiz mustaqilligini yovuz kuchlardan terrorchilardan ko'z qorachig'iday asrash, uni yanada gullab - yashnashiga o'z hissalaringizni qo'shishingiz farzandlik burchingizga kiradi. Shuning uchun mustaqil yurtimizga munosib farzand bo'lishga intiling.

Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

# Foydalanilgan adabiyotlar


1 Karimov I A Barkamol avlod orzusi „Toshkent "– 1999
2 Karimov I A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch „Toshkent "– 2008
3 Karimov I A Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, Ōzbekiston sharoitida uni bartaraf etish yōllari va choralari „Ōzbekiston "– 2009
4 Abdukarimov X „Milliy tarbiya, kasbiy ōz-ōzini tarbiyalash va ōzbekona xarakter xususiyatlari maqolasi Uzluksiz ta'lim jurnali 2007 y 4 son
5 Abdullayeva Q, Yusupov M, Mahmudova, Rahmonbekova S Ōqish kitobi 2-sinf uchun „Toshkent"– 2008
6 Avezov S Ifodali ōqishga ōrgatish maqolasi Boshlanğich ta'lim jurnali 2008 y 11 son
7 Husanov Ō, Xoldarova I Izlanish samaralari „Farğona "– 2006
8 Jōrayev R „Orzular rōyobi „Toshkent "– 2001
9 Matchonov S, Shojalilov A, Vohidova N Odamova Ō 4 sinf ōqish darslari Ōqituvchi uchun metodik qōllanma Toshkent – 2002
10 Mahmudov O Vatanparvarlik oliy tuyğu maqolasi Boshlanğich ta'lim jurnali 2005 y 4 son
11 Nazarova X Ōqish darsi nafosat olami maqolasi Boshlanğich ta'lim jurnali 2008y

12 Nishonova S Tarbiyaning nozik sirlari Xalq ta'limi jurnali 2008 y 4 son
13 Nishonaliyeva Z Pedagogika kursi „Toshkent"-2000
14 Qosimova K Boshlangich sinflarda ona tili ŏqitish metodikasi „Toshkent" – 1985
15 Sotvoldiyeva X Vatan ostonadan boshlanadi maqolasi Boshlangich ta'lim jurnali 2009 y 1 son.
16 Tojiyeva M Milliy mustaqillik gʻoyalarini shakllantirish maqolasi Boshlangʻich ta'lim jurnali 2005 y 2 son
17 Ubayxŏjayeva R Yosh izlanuvchan ŏqituvchilarga maqolasi Boshlangich ta'lim jurnali 2005 y 4 son
18 Tŏraqulov X Savodxonlik asoslari va hisoblash tafakkuri maqolasi Boshlangʻich ta'lim jurnali 2005 y 5 son
19 Shodmonov E, Goffarova G, Eshturdiyeva Ŏqish kitobi 1 sinf uchun „Toshkent"-2008
20 Shergŏziyeva M Kelajagi buyuk, kur Ŏzbekiston maqolasi Boshlangich ta'lim jurnali 2006 y 7 son
21 Ta'lim tŏgrisidagi Qonun „Toshkent sharq" 1997
22 DTS talablari. (Boshlangich sinflar uchun)